

Yangi qurilma ishlab chiqildi

✘ Xitoy Fanlar Akademiyasi qoshidagi Xinjiang Ekologiya va Geografiya instituti olimlari hamda TIQXMMI "Gidrologiya va Hidrogeologiya", "Gidravlika va gidroinformatika" kafedralari professor-o'qituvchilari va yosh talabalari prof. A.M.Arifjanov, prof.A.M.Fatxulloyev, dots.L.N.Samiyev, dots.Sh.B.Akmalov, prof.Gao Peng, prof. Liu Hailong, Sh.Shodiyev, B.Abdusalomovlar hamkorlikda masofadan ma'lumotlarni uzatuvchi mini meteo-gidrogeologik post qurilmasini ishlab chiqishdi. Ushbu qurilma institutlararo tuzilgan memoriandum va shartnomaga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasining 10 ta hududiga o'rnatildi hamda hozirda ma'lumotlarni institutimizda o'rnatilgan kompyuterga masofadan uzatmoqda. Ushbu ma'lumotlar ob-havo, sizot suvlarini harorati, namlik, bosim, mineralizatsiyasi haqidagi malumotlardir. Qurilmaning 1 donasi institutimiz hududida o'rnatilgan bo'lib unda talabalar bevosita innovatsion texnologiyalar asosida amaliy va laboratoriya ishlarini olib borishmoqda. Suratda "Gidrologiya va Hidrogeologiya" kafedrasida dots.Sh.B.Akmalov va iqtidorli talaba Sh.Q.Shodiyev Gidrologiya (Suv omborlarida) 317-guruh talabalariga iqlimshunoslik fanidan ob-havo haqidagi distansion ma'lumotlarni olish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazishmoqda.

Institut matbuot xizmati rahbari R. Jumaniyozov